

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2022 йил 1-сон



мурожаат, йўқликнинг сирин томон китобхонни бошқариш унинг услубига хос сифат. Келтирилган ҳикояда ҳам адиб услубидаги шу ўринлар бир қадар кўзга ташлангандек кўринади. Ушбу тарихий ҳикояда ўқувчи ёзувчининг қадимий афсонага ёндашувини қабул қила олмаслиги табиий.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Карим Б. “Кўз”нинг поэтик моҳияти / Бадиият уфқлари. – Тошкент: Университет, 2008. – Б. 54.
2. Сарчашма мавжлари. Мақолалар тўплами. – Тошкент: MASHHUR PRES, 2016. – Б.306.
3. Сатторова Г. Чўпчакдан муддао не? (Назар Эшонкулнинг “Сибизға воласи” ҳикоясини ўқиб) // Ёшлик, 2012 йил. 9-сон.
4. Қуронов Д ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 268.
5. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Тошкент : Ўқитувчи, 1983. – Б.252.

BADIY TASVIRDA ALLITERATSIYA VA ASSONANS – STILISTIK FIGURA SIFATIDA

Haydarov Anvar Askarovich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti, Buxoro davlat universiteti

E-mail: haydarov1955@rambler.ru, Tel: +998930820957

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida alliteratsiya va annosans haqida fikr yuritilgan. Fonetik uslubiyatda, asosan, nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari o'rganiladi. Fonostilistika masalalari ingliz va o'zbek tillarida bir qadar o'rganilgan. Unda nutq tovushlari takroriga asoslangan alliteratsiya, assonans, anafora, epifora kabi stilistik figuralar natijasida tilning ta'sirchanlik qirralari namoyon bo'lishi haqida bahs yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** fonostilistika, konnotatsiya, stilistik figura, alliteratsiya, assonans.*

АЛЛИТЕРАЦИЯ И АССОНАНС В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ОБРАЗЕ - КАК СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ФИГУРА

Хайдаров Анвар Аскарлович

Кандидат филологических наук, доцент

Доцент кафедры английского языкознания Бухарского государственного университета

E-mail: haydarov1955@rambler.ru, Tel: +998930820957

***Аннотация:** В этой статье обсуждаются аллитерация и аннотации на английском и узбекском языках. Фонетическая методика в основном изучает стилистические особенности звуков речи. Фоностилистика изучается на английском и*



узбекском языках. Обсуждается влияние языка на такие стилистические фигуры, как аллитерация, ассонанс, анафора, эпифора, основанная на повторении звуков речи.

Ключевые слова: фоностилистика, коннотация, стилистическая фигура, аллитерация, ассонанс.

ALLITERATION AND ASSONANCE IN ARTISTIC IMAGE - AS A STYLISTIC FIGURE

Khaydarov Anvar Askarovich

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

Associate Professor of English Linguistics, Bukhara State University

E-mail: haydarov1955@rambler.ru, Tel: +998930820957

Annotation: This article discusses alliteration and annotation in English and Uzbek. Phonetic methodology mainly studies the stylistic features of speech sounds. Phonostylistics has been studied in English and Uzbek. It discusses the impact of language on stylistic figures such as alliteration, assonance, anaphora, and epiphora, which are based on the repetition of speech sounds.

Key words: phonostylistics, connotation, stylistic means, alliteration, assonans.

Tilshunoslikning keyingi taraqqiyotida tilning aloqa vositasi sifatida ichki imkoniyatlari chuqur o'rganila boshlandi.

Natijada uslubiyat va uslubiyatning bir tarmog'i hisoblangan fonetik uslubiyat paydo bo'ldi. Fonetik uslubiyatda, asosan, nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari o'rganiladi. Fonostilistika masalalari ingliz va o'zbek tillarida bir qadar o'rganilgan. Unda nutq tovushlari takroriga asoslangan alliteratsiya, assonans, anafora, epifora kabi stilistik figuralar natijasida tilning ta'sirchanlik qirralari namoyon bo'lishi haqida bahs yuritiladi. Ammo qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillari misolida qiyosiy o'rganish amalda oshirilmagan.

Ushbu maqolada stilistik figuralardan alliteratsiya va assonans hodisalarining o'zbek va ingliz tillaridagi o'ziga xosliklari haqida fikr yuritimiz.

Alliteratsiya (lot. al – old, litera – harf) deganda misralar, undagi so'zlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishi [1, 14] tushuniladi. Alliteratsiyaning vazifasi matnda qo'shimcha musiqiy ohangdorlik yaratishdir.

Uning mohiyati gapdagi bir xil tovushlar bilan boshlangan har bir so'zning takrorlanishidir. Boshqacha aytganda, alliteratsiya jumlada u yoki bu tovushni turli maqsadlarda o'rinli takrorlash san'atidir. Tovush she'rni she'r qiluvchi asosiy element hisoblanadi. So'z ustalari, adiblar o'z asarlarining jozibadorligini ta'minlashda alliteratsiya san'atidan foydalanadilar. Alliteratsiya ma'lum fonetik sharoitda bir so'z ichidagi bo'g'inlararo, shuningdek, jumladagi ikki va undan ortiq so'zlar orasida bo'ladi. Alliteratsiya usulining o'ziga xos xususiyatlaridan asosiysi uning misralarni hosil qiluvchi so'zlarning o'zaro aloqasini ta'minlaydi [2, 41].

Alliteratsiya hodisasi dastlab xalq ijodida mavjud bo'lgan. Xalq o'zining uzoq o'tmishi davomida jamlagan tajribalaridagi maqol, matal va turli xildagi aforizmlardagi o'ta qisqa jumladan ifodalagan.



Xalq o'zi yaratgan og'zaki ijod namunalaridan ayrimlarini yaxlitlash, barqaror holatga keltirish uchun alliteratsiyadan unumli foydalangan. Jumladan, maqol va matalarda:

Ingliz tilida:

Safe and sound; Tit for tat; Blind as a bat; Neck and nothing.

O'zbek tilida: Ellik yilda el o'zgarar; Ko'kka boqma, ko'pga boq.

Yuqoridagi har ikkala tilda keltirilgan misollardan ko'rinadiki, xalq yaratgan ijod namunalarida, xususan, xalq maqollarida ma'no asosiy rol o'ynasa ham, biroq shaklning roli ham beqiyosdir. Sodda shaklda ifodalangan fikr oson tushuniladi, xotirada uzoq saqlanadi.

Xalq tomonidan yaratilgan ushbu usuldan ayrim shoir va yozuvchilar o'z asarlarining ta'sirchanligi hamda jozibadorligini ta'minlashda keng foydalanganlar.

Ingliz tilidagi alliteratsiya hodisasi haqida I.V.Arnol'd fikr yuritib: "Alliteratsiya keng ma'noda bir xil yoki yonma-yon joylashgan urg'uli bo'g'inlar boshidagi undosh yoki unli tovushlar takroridir", - deb qayd etgan [3, 214].

Ingliz tilida: Quyidagi she'rda "d" undoshini takroriga asoslangan alliteratsiya hodisasini ko'rish mumkin:

Deep into the darkness peering, long I stood there wondering, fearing;

Doubting, dreaming, dreams no mortals,

Ever dared to dream before (E.A.Poe)

O'zbek tilidagi quyidagi she'riy parchada ham shoir alliteratsiyadan ustalik bilan foydalanganligini ko'ramiz.

Sim-sim yomg'ir, sirli soz misol.

Pichirlaydi ona tabiat.

Saxiyiligi ortganday qat-qat,

Go'yo deydi: ol, ol, olib qol. (Mirtemir "Yoz yomg'iri).

Yuqoridagi misralarda "s" undosh tovushining takroriga asoslangan alliteratsiya hodisasini kuzatamiz. Shoir bahor fasli yoz fasliga qaraganda salqinligi, yengil, yoqimli shabada esib turishi, mayinligi, gul va maysalarga to'la bo'lganligi sababli so'limligi bilan ajralib turishini mohirona tasvirlagan. Shuning uchun keltirilgan parchadagi tabiat tasviri haqqoniy manzara bilan uyg'unlashib ketgan. She'rda ham tabiat tasviri ohangdosh tovushlar orqali obrazli ifodalangan. Shu bilan birga, misradagi "s" tovushining takrori ma'no va emotsional ta'sirchanlik ortib borishiga xizmat qilgan. She'riyatda alliteratsiya orqali obrazlilik va ta'sirchanlik bo'rttiriladi. Uslubiy ravonlik, so'zlarning ohangdorligini vujudga keltiradi. Misra boshida tovushlarning takror kelishi tovushlar uyg'unligini hosil qiladi.

Ingliz tilida:

To lend our hearts and spirits wholly,

To the music of mild minded melancholy,

To muse and blood and live, again in memory. (Tennyson)

O'zbek tilida:

Sokin so'lim kecha... men soqchi edim,

Soyalarday yiroq qorovulxona.

Sokin so'lim kecha. To'rt tomonim olam.



Saqlar edim, elni mardona (Mirtemir)

Shuningdek, alliteratsiyani ro'znoma sahifalarida va adabiy asarlar nomlarida ham uchratish mumkin.

Masalan: *kechmish va kechirilishlardan* (G'.G'ulom)

Izlarini izlayman. Tez va toza.

Shunday qilib, alliteratsiya so'zlar orasidagi aloqani mustahkamlaydi, tashqi tomondan yaxlitlaydi, o'quvchi xotirasida uzoq saqlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, alliteratsiya ahamiyatli so'zni ajratib ko'rsatadi, uni alohida o'ziga xos talaffuz qilishga undaydi hamda tovush takrori evfonik vazifani bajaradi va tovushning takrorlanishdan poetik asarda obrazlilik hamda ta'sirchanlikni oshirishda muhim fonostilistik vosita sifatida xizmat qiladi, chunki alliteratsiya nutqning umumiy estetik ta'sirini kuchaytiradi.

"Misralar oxiridagi ohangdosh, talaffuzi o'xshash so'zlar, bo'g'inlar yoki birikmalar" [4, 605] **qofiya** deb yuritiladi. Qofiyaning to'liq, bo'sh, unlilar, undoshlar qofiyasi kabi turlari mavjud. Qofiya she'rni tashkil etadi, uni nasriy asarlardan farqlaydi, shu bilan birga ohangdoshlikni yuzaga keltiradi. She'riy nutqni ohangdor va ta'sirchan qilishda xizmat qiladi. She'rning asosiy g'oyasini ifodalash uchun ba'zan she'rda uning asosini tashkil etuvchi so'zlarning qofiyalashuvini ko'rish mumkin.

Ingliz tilida:

It was many and many a year ago,

In a kingdom by the sea.

That a maiden there lived whom you may know.

By the name of Annabl Lee;

And this maiden she lived with no other thought.

Than to love and be loved by me. (E.A.Poe)

From "Sea Dreams".

What does little birdie say.

In her nest at peep of day?

Let me fly, says little birdie,

Mother, let me fly away.

Birdie, rest a little longer.

Till the little wings are stronger,

So she rests a little longer,

Then she flies away. (Tennyson)

Qofiyaning ahamiyati she'rning ohangdorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Shu sababdan qofiya she'rning g'oyasini ifodalash vositasi hisoblanadi.

Maqol va matallarning ko'pchiligi qofiyaga asosan yasalgan. Bu qofiyalangan birikmalar, turli maqsadlarda ishlatiladi. O'zbek tilida qofiya dostonlarda, she'riyatda ko'p uchraydi.

Oltin edim, cho'yan bo'ldim,

Don edim, somon bo'ldim.

Qimmat edim,

Arzon bo'ldim,

G'amga qolgan ravshan bo'ldim.



Yuqoridagi she'riy misradagi cho'yan, somon, arzon, ravshan so'zlari o'zaro qofiyalangan.

Stilistik figuralardan yana biri **assonans**dir. Fonetik vositalarni uslubiy qo'llash natijasida turli xil fonetik hodisalar yuz beradi. Shulardan biri assonans hisoblanadi.

Assonans lotincha ("acconance" – "ohangdoshlik" so'zidan) atamasi tilshunoslikda gapda, misra va bandda bir xil unli tovushlarning qaytarilishi holatiga nisbatan qo'llaniladi. [5, 58]. Assonans usuli she'riyatda unlilarning mosligi bilan bog'liq bo'lib, aruz vaznida ham, barmoq vaznida ham asosiy elementlardan biri sanaladi. Masalan:

*And failing and crawling and sprawling,
And gleaming and streaming and blaming.* (R.Southey)

O'zbek she'riyatida ham shoirlar ushbu hodisadan keng foydalanadilar. Jumladan, H.Olimjonning quyidagi she'rida bu usuldan keng foydalanilgan.

*Botirlari kanal qazadi,
Shoirlari g'azal yozadi.
Dalasida o'smas tikanlar,
Yo'llarida chopmas ilonlar.* (H.Olimjon. "O'zbekiston" she'ri).

Adiblar o'z asarida tovushlar mosligiga, ularda kuchli konnotativ ma'no ifodalanishiga e'tibor beradilar. Chunki ushbu usuldan foydalanib yozilgan she'rlar o'quvchining tez va osonlik bilan she'rni yodlashi, ularning o'ynoqi va musiqiyliigi, ritmik xarakterga ega bo'lishi esa she'rlarning qo'shiq qilib kuylashga moyilligini ko'rsatadi, ularning juda ko'p kuylanishiga sabab bo'ladi. Masalan:

*Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.
Shunda ko'zim ko'rdi bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni...* (H.Olimjon)

Yuqoridagi she'riy parchadagi misralarda tovushlar takrori nutqning musiqiyliyini ta'minlagan. Assonans usulida she'rning bir satrida lablangan unlilar ishtirok etgan bo'lsa, ikkinchi satrida ham unga hamohang ravishda lablangan unlilar qatnashgan.

*Seni ko'rsa ochilsin gullar,
Seni ko'rsa yonsin bulbullar.* (H.Olimjon)

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, shoirlar poetik ijodida assonans faol qo'llanuvchi fonetik usullardan biri bo'lib, u shoirlar asarlarining ohangdoshligi va jozibadorligini ta'minlashda xizmat qiladi.

Shuningdek, alliteratsiya, qofiya va assonans hodisalari har ikkala tilda ba'zan ayrim moslik va aynanliklarni, ba'zan esa tilning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib o'ziga xos farqli tomonlarni ham namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1985, -14b.
2. Aliyev S. Mumtoz adabiyotda badiiy san'atlar. –B.: 1994, -41 b.
3. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. –М.: Просвещение, 1990. С. 214.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildlik. 2-jild. –M.: Rus tili, 1981, –B.605.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.:1966, –С. 58.



6. Haydarov Anvar Askarovich. (2021). EXPRESSION OF CONNOTATIVE MEANING IN GRAPHIC MEANS. International Engineering Journal For Research & Development, 6(TITFL), 91–94. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/3Q7SB>
7. Abdullayeva, Gulnora; ,GRAMMATICAL DISPROPORTION BETWEEN UZBEK AND ENGLISH AS A MAIN PROBLEM IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION OF THE LANGUAGES,EPRA International Journal of Research and Development (IJRD),5,9,409-412,2020,EPRA Publishing <https://eprajournals.com/viewjournal.php?jid=3438>
8. Haydarov, Anvar Askarovich and Navruzova, Nigina Hamidovna (2021) "STYLISTIC FEATURES OF INTONATION," Scientific reports of Bukhara State University: Vol. 5 : Iss. 1 , Article 2. DOI: 10.52297/2181-1466/2021/5/1/2 <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol5/iss1/2>

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СРЕДСТВ ВЫРАЖЕНИЯ РЕЧЕВОЙ ЦЕПОЧКИ НА ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Анарбоева Иродахон Ориповна
Старший преподаватель кафедры французского языка
Андижанский государственный университет
E - mail iroda_an70@mail.ru Тел. + 99 899 908 19 70

Аннотация: В статье анализируется формирование отдельного синтагматического сегмента по отношению к первичным номинациям в потоке повторяющихся номинаций в речи. Контрастные различия между французским и узбекским языками разных систем объясняются особенностями речевых норм.

Ключевые слова: повторная номинация, синтагматический сегмент, последовательность речи, единица речи, денотат, семантема, репрезентативные глаголы.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE MEANS OF EXPRESSION OF THE SPEECH CHAIN IN FRENCH AND UZBEK

Irodakhon Oripovna Anarbayeva
Senior teacher of the French Language Department
Andijan state university
E - mail iroda_an70@mail.ru Тел. + 99 899 908 19 70

Annotation: The article analyzes the formation of a separate syntagmatic segment in relation to the primary nominations in the flow of repeated nominations in speech. The contrasting differences between the French and Uzbek languages of different systems are explained by the features of speech norms.

Key words: repeated nomination, syntagmatic segment, succession speech, denotation, semanteme, verb representative.

ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА НУТҚ ЗАНЖИРИ ИФОДА ВОСИТАЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАХЛИЛИ



54	Улучшение поэтического содержания юмористической детской поэзии Джураева Г.А.....	292
55	Jahoning buyuk yozuvchilari V.Shekspir va A.Navoining asarlarini qiyosiy o'rganishning ahamiyati hususida("Layli va Majnun" hamda "Romeo va Juliyetta" asarlari misolida) Soliev Y.	299
56	Ingliz nutq etiketining o'ziga xos xususiyatlari. Qosimova N.F., Amonova M.O.	303
57	Le role de l'enseignant pour valoriser l'apprentissage du français To'yboyeva Sh.R.	310
58	Iqtisodiyot sohasi terminlarining nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima variantlari To'rayeva F.Sh.	314
59	Functional specificity of philosophical concepts and terms Sadullaev D.B.	318
60	Nemis tilidagi yoshlar leksikasida o'zlashtirma so'zlar va ularning xususiyatlari Saidova D.A.	323
61	Nutq odob-axloq qoidalari lingvistik tadqiqot ob'ekti sifatida Soliyeva M.A.	328
62	Sossyur ta'limoti va zamonaviy o'zbek tilshunosligi Bobokalonov R.R.	333
63	Қўшма сўзларнинг концептуал таҳлил масаласи Юлдашев А.Г.....	338
64	Ҳикояда тарихий образ талқини Амиркулова З.М.	346
65	Badiiy tasvirda alliteratsiya va assonans – stilistik figura sifatida Haydarov A.A.	351
66	Сравнительный анализ средств выражения речевой цепочки на французском и узбекском языках Анарбоева И.О.	356
67	Аргументация в рекламном тексте в рамках теории речевых актов Ахтямов А.Э.	363
68	Романда аёл кўнглининг бадий тасвири Ашурова Н.Х.	368
69	Нутқ маданияти масалаларининг синчи тадқиқотчиси Аҳмедова Ҳ.	375
70	Ўзбек ва рус тилларида маданий-истироҳат объектларини ифодаловчи индикаторлар ва уларнинг функционал-семантик хусусиятлари Исломова Д.А.	380
71	Замонавий тилшуносликда иқтисодий дискурсининг тадқиқи Мамадаюпова Ш.	386
72	Инглиз ва ўзбек тилларида "head/bosh" концептини ифода этувчи фразеологик бирликларнинг изоморфик хусусиятлари Эштўхтарова Б.Б.	395
73	Баҳолаш категориясини тадқиқ қилишда янгича ёндашувлар. Мансурова Г.М.	400